

TURISTLARNING MOLIYAVIY XAVFSIZLIGI: ZAMONAVIY TAHDIDLAR VA ULARDAN HIMOYALANISH YO'LLARI

Urunov Numanjon Mo'ydinovich

PhD Namangan davlat universiteti

Annotatsiya. Moliyaviy savodxonlik turistlar uchun sayohat davomida moliyaviy resurslarini samarali boshqarish, firibgarlikdan qochish va valyuta almashinuvi, to'lovlar va tejamkorlik bo'yicha to'g'ri qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqola O'zbekiston va boshqa davlatlarda turistlar uchun mavjud moliyaviy savodxonlik resurslarini taqqoslaydi, onlayn kurslar, mobil ilovalar, seminarlar va treninglarga e'tibor qaratadi..

Abstract. This article examines the financial security of tourists, analyzing the modern threats they face and the ways to protect against them. With the growth of the tourism industry, threats such as fraud, currency exchange issues, and the security of digital payment systems are on the rise. The article discusses tourists' preparedness for these threats as well as existing legal and financial protection mechanisms. The analysis results indicate that systemic approaches, education, and international cooperation are essential for ensuring tourists' financial security. The article identifies gaps in the tourism and financial security sectors and provides practical recommendations.

Аннотация. Данная статья исследует вопрос финансовой безопасности туристов, анализируя современные угрозы и способы защиты от них. С ростом туристической отрасли увеличиваются и угрозы, такие как мошенничество, проблемы с обменом валюты и безопасность цифровых платежных систем. В статье рассматривается подготовленность туристов к этим угрозам, а также существующие правовые и финансовые механизмы защиты. Результаты анализа показывают, что для обеспечения финансовой безопасности туристов необходимы системные подходы, образование и международное сотрудничество. Статья выявляет существующие пробелы в сфере туризма и финансовой безопасности, а также предлагает практические рекомендации.

Kalit soʻzlar. Turizm, firibgarlik, moliyaviy xavfsizlik, raqamli toʻlov tizimi xavfsizligi

Kirish. Soʻnggi yillarda global miqyosda turizm sanoati tez surʼatlarda rivojlanmoqda. Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) maʼlumotlariga koʻra, 2023-yilda dunyo boʻyicha 1,3 milliarddan ortiq xalqaro sayohat amalga oshirilgan boʻlib, bu koʻrsatkich pandemiyadan oldingi darajaga yaqinlashganini koʻrsatadi. Tahlillar shuni koʻrsatmoqdaki, 2024 yil davomida diyorimizga jami 8,6 million nafar xorijiy sayyoh keldi. Ularga 2,7 milliard dollarlik xizmat koʻrsatildi. Ushbu koʻrsatkich oʻtgan yilga nisbatan 1,5 barobar koʻp. Yevropa va boshqa mintaqalar hamda qoʻshni davlatlardan keluvchilarning oʻrtacha xarajati 2022 yilga nisbatan 1,5 barobar oshgan. Maqsadli xorijiy davlatlardan turizm oqimi sezilarli jadallashdi. Jami miqdorda chegaradosh oʻlkalar fuqarolari ulushi 2018 yildagi 87 foizdan 80 foizga tushdi, Koʻhna qitʼa va boshqa uzoq davlatlar hisssasi 5,3 foizdan 9,0 foizga koʻtarildi.

Sayyohlarga xizmat koʻrsatuvchi 762 yangi subʼekt faoliyati yoʻlga qoʻyilishi natijasida turistik tashkilotlar va turagentlar soni 3581 taga yetdi. Bugungi kunda respublikamiz boʻylab 3200 gid-ekskursovod ishlayapti. Joriy yilning oʻzida ayni raqam 700 taga ortdi.

Meni fikrimcha, sayohat qilish jamiyatlararo aloqalarni mustahkamlash, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish, iqtisodiy faollikni oshirishda muhim oʻrin tutadi. Ammo turizmning kengayishi bilan bir qatorda, moliyaviy xavfsizlik masalasi ham dolzarb boʻlib bormoqda. Turistlar yangi joylarda oʻzlarining moliyaviy resurslariga (naqd pul, bank kartalari, raqamli toʻlov vositalari) tayanishadi. Biroq, soʻnggi yillarda moliyaviy firibgarlik, valyuta almashuvi bilan bogʻliq noqulayliklar va raqamli toʻlov tizimlaridagi xatolar tufayli sayohatchilar katta yoʻqotishlarga uchrashmoqda.

Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda xavfsizlik mexanizmlarining toʻliq ishlamasligi, qonunbuzarlarning yangi texnologiyalardan foydalanib, firibgarlik holatlarining koʻpayishiga sabab boʻlishi, ushbu muammoni yanada keskinlashtirmoqda. Raqamli toʻlovlarning ommalashuvi, ochiq Wi-Fi tarmoqlaridan foydalanish, nomaʼlum valyutalarda savdo qilish va noqonuniy ayirboshlash punktlari turistlarni moliyaviy

jihatdan zaif holatga keltirib qo‘ymoqda. Bundan tashqari, ayrim sayyohlik agentliklarining noqonuniy faoliyati, soxta onlayn band qilish tizimlari orqali minglab odamlar aldanib qolmoqda.

Quyida zamonaviy tahdidlar kontekstida turistlarning moliyaviy xavfsizligiga tahdid soluvchi asosiy omillar atroflicha tahlil qilinadi. Maqola davomida amaliy misollar, xalqaro tajriba va statistik ma’lumotlar asosida tahlil o‘tkaziladi hamda ushbu muammolarning oldini olish, turistlarni moliyaviy himoyalash bo‘yicha tavsiyalar keltiriladi.

O‘rganish metodologiyasi. Ushbu maqola tahliliy-tavsifiy (analitik-deskriptiv) metod asosida tayyorlandi. Maqolada turizm sohasidagi turistlar moliyaviy xavfsizligiga oid mavjud tahdidlar va ularni bartaraf etish bo‘yicha usullar yoritildi. Asosiy e’tibor ilgari o‘rganilgan xalqaro va mahalliy manbalarga, statistik ma’lumotlarga, ekspert intervyulariga va turizm xavfsizligiga oid dolzarb maqolalarga qaratildi. Tahlil uchun quyidagi uslublardan foydalanildi:

Ma’lumotlar tahlili: UNWTO, McAfee, Forbes, Statista, O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi kabi nufuzli manbalar asosida zamonaviy tahdidlar turlari o‘rganildi.

Taqdim etilgan misollar orqali keys-stadi (case study): Turli mamlakatlarda yuzaga kelgan real firibgarlik holatlari misol tariqasida o‘rganildi.

Taqqoslov (komparativ) tahlil: Turistlarning moliyaviy xavfsizligi bo‘yicha turli mintaqaviy siyosatlar, texnologik yondashuvlar solishtirildi.

Empirik kuzatuvlar: O‘zbekiston va boshqa mintaqaviy davlatlarda sayohat qilayotgan turistlar duch kelgan asosiy muammolar kuzatildi (ochiq manbalardagi maqolalar, ijtimoiy tarmoqlardagi murojaatlar va turistlar bloglari asosida).

Ushbu usullar yordamida turistlarning moliyaviy xavfsizligiga tahdid soluvchi omillar aniqlandi va ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Natijalar. Metodologiyada qo‘llangan tahlil usullari natijasida quyidagi asosiy faktlar va tendensiyalar aniqlandi: Yevropa mamlakatlarida (Italiya, Ispaniya, Fransiya) turistlar asosan soxta tur agentliklar va chiptalar orqali aldanadi. Yevropa Komissiyasi 2023 yilda sayyohlik bilan bog‘liq firibgarliklar soni 18% ga oshganini bildirgan.

Osiyo mamlakatlarida esa kartani klonlash va mobil ilovalardagi soxta to‘lov tizimlari ustunlik qiladi. McAfee (2023) tahlilida mobil to‘lov tizimlaridagi firibgarliklar 12% ga oshganligi ko‘rsatilgan. Google Pay va Apple Pay foydalanuvchilari orasida 2022–2023 yillarda o‘tkazilgan xalqaro so‘rovnoma ko‘ra, foydalanuvchilarning 22% dan ortig‘i kamida bir marta nomaqbul tranzaksiya yoki firibgarlik holatiga duch kelgan.

O‘zbekiston, Turkiya, Tailand kabi sayyohlik yo‘nalishlarida esa ochiq Wi-Fi orqali bank ilovasidan foydalangan holda firibgarlik qurboniga aylanganlar soni oshgan. Ma‘lumotlar asosida ko‘p sayyohlar safarga chiqishdan oldin: hech qanday moliyaviy xavfsizlik bo‘yicha ma‘lumot o‘rganmagan, virtual karta ochmagan, sayohat sug‘urtasi qilmagan, favqulodda yordam raqamlarini bilmaganligi aniqlangan. Rivojlangan mamlakatlarda turistlar duch kelgan moliyaviy tahdidlar kamroq va jiddiy bo‘lgan.

Masalan, Shvetsiya va Singapurda ayirboshlash tizimi to‘liq avtomatlashtirilgan, kurs doimo yangilanib turadi. O‘zbekistonda esa bu boradagi tizim rivojlanib borayotgan bo‘lsa-da, hali ham ayrim joylarda “qo‘lda” narxlar belgilanadi.

Biroq, 2023-yilda aholi gavjum joylarda, turistik zonalarda, aeroport, vokzal va savdo majmualarida tashkil etilgan “24/7” rejimida ishlovchi avtomatlashtirilgan valyuta ayirboshlash bankomatlari orqali jismoniy shaxslardan sotib olingan naqd chet el valyutasi 169 mln dollarni tashkil etgan bo‘lsa, jismoniy shaxslarga 100 dollargacha bo‘lgan miqdorda jami 117 mln dollar sotildi.¹

Munozara. Turizm sohasida moliyaviy xavfsizlik masalasi tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Ushbu maqolada tahlil qilingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, turistlar nafaqat yangi madaniyatlar bilan tanishish, balki bir vaqtning o‘zida murakkab moliyaviy muammolarga duch kelishmoqda. Ushbu tahdidlar zamonaviy texnologiyalar taraqqiyoti bilan birga kuchaymoqda va murakkablashmoqda. Internet orqali xizmatlar ko‘rsatuvchi soxta saytlarning ko‘payishi global muammo bo‘lib, bunga qarshi kurashish uchun quyidagi chora-tadbirlar muhim hisoblanadi.

Davlat darajasida nazorat kuchaytirilishi, ayniqsa, turistik xizmat ko'rsatuvchi agentliklar faoliyatining litsenziyalanishi oddiy misol bo'la oladi. Foydalanuvchilarga xavfsiz onlayn xarid qilish madaniyatini shakllantirish: Jumladan, soxta havolalarni aniqlash, SSL sertifikatlarni tekshirish va boshqalar. Banklar va turistik tashkilotlar hamkorligida firibgarlikni aniqlash algoritmlarini ishlab chiqish shular jumlasidandir. Ko'pchilik sayyohlar, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarga safar qilganda, valyuta ayirboshlash bilan bog'liq muammolarga duch keladi.

Buning oldini olish uchun, rasmiy ayirboshlash punktlarining interaktiv xaritalari va real vaqtda kurslarni aks ettiruvchi mobil ilovalar joriy etilishi lozim.

Aeroport, temir yo'l vokzali kabi joylarda mustahkam nazorat ostida ishlaydigan ayirboshlash punktlarini tashkil etish. Turistlarga moliyaviy savodxonlikka oid materiallar (risolalar, QR-kodli yo'riqnomalar) tarqatilishi mumkin. Raqamli to'lov tizimlarining qulayligi bilan birga, xavflilik darajasi ham yuqori hisoblanadi. Shu sababli, raqamli xavfsizlik madaniyatini shakllantirish: ikki bosqichli autentifikatsiyani faol qilish, parollarni murakkab saqlash, virtual kartalardan foydalanish kerak bo'ladi. Ochiq Wi-Fi orqali tranzaksiyalar amalga oshirishda VPN (Virtual Private Network) xizmatidan foydalanish keng targ'ib qilinishi kerak.

Bizni fikrimizcha, davlatlar o'rtasida kiberxavfsizlik bo'yicha tajriba almashish tizimlari yo'lga qo'yilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Moliyaviy tahdidlar ko'p hollarda sayohatchilarning bilimsizligi yoki tayyorgarlik darajasining yetarli bo'lmasligi bilan bog'liq bo'ladi. Bu borada: turistik kompaniyalar va mehmonxonalar orqali moliyaviy xavfsizlik bo'yicha treninglar va qisqa kurslar taklif etilishi mumkin. Turistlar uchun favqulodda moliyaviy yordam mexanizmlari (bank zaxira hisoblari, qo'shimcha sug'urta paketlari) taklif etilishi mumkin.

Ayrim davlatlar turistlar xavfsizligiga jiddiy yondashmoqda. Masalan: Yaponiyada barcha rasmiy ayirboshlash punktlarining joylashuvi maxsus ilovalar orqali aniqlanadi. Singapurda raqamli to'lovlar faqat sertifikatlangan ilovalar orqali amalga oshiriladi. O'zbekistonda esa, so'nggi yillarda turizm infratuzilmasi jadal rivojlanmoqda, ammo moliyaviy xavfsizlik borasida yanada tizimli yondashuvlar joriy etilishi juda ham zarur hisoblanadi.

Xulosa. Ushbu maqolada turistlarning moliyaviy xavfsizligi masalalari zamonaviy tahdidlar va ularni himoyalash yo‘llari nuqtai nazaridan tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, sayyohlar duch keladigan asosiy moliyaviy tahdidlar firibgarlik, valyuta ayirboshlashdagi noaniqliklar, raqamli to‘lov tizimlarining zaifligi va tayyorgarlikning pastligi bilan bog‘liq.

Ushbu tahdidlar turizm sanoatining rivojlanishi bilan birga kengaymoqda va yangi texnologiyalar bilan bog‘liq xavf-xatarlarni ham keltirib chiqarmoqda. Turistlar ko‘pincha moliyaviy xavfsizlikka nisbatan yetarlicha tayyorgarlik ko‘rmaydilar, shu bilan birga rasmiy va norasmiy moliyaviy xizmatlar orasidagi tafovutlar ularga zarar yetkazadi. Shuning uchun, mamlakatlar o‘rtasida turist xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha tizimli va global yondashuv zarur. Demak,

1. **Firibgarlik holatlarining ko‘payishi:** O‘rganilgan natijalar turistlar uchun turizm industriyasida eng katta tahdidni tashkil etadi. Sayohatchilarning onlayn xaridlarida firibgarlik holatlari ortib bormoqda va bu masala jahon bo‘ylab tartibga solishni talab qiladi.

2. **Valyuta ayirboshlashda oldinga siljish:** Turistlar o‘rtasida valyuta ayirboshlashdagi noaniqliklar va zarar ko‘rish holatlari ko‘plab muammolarni keltirib chiqarmoqda. Buning uchun ruxsat etilgan va ishonchli valyuta ayirboshlash tizimlari zarur.

3. **Raqamli to‘lov tizimlarining xavfsizligi:** Raqamli to‘lovlar orqali turistlar xavf ostiga qolmoqda. Shu bois, raqamli xavfsizlikni mustahkamlash uchun yangi texnologiyalarni joriy etish lozim.

4. **Moliyaviy tayyorgarlikning yomonligi:** Ko‘p sayohatchilar moliyaviy xavfsizlikni nazorat qilishda yetarli tayyorgarlikka ega emaslar. Shuning uchun, turistlarga yordam beradigan moliyaviy xavfsizlik bo‘yicha treninglar va ma‘lumotlar zarur.

Shu bilan birga, yuqorida taklif etilgan tavsiyalar ham amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, turistlar uchun zarur bo‘lgan moliyaviy xavfsizlik tizimlarini joriy etish, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash va sayohat qilishdan oldin tayyorgarlik ko‘rish madaniyatini shakllantirishning ahamiyati yoritildi.

Ushbu maqolada, turistik ob‘yektlarning moliyaviy xavfsizligi ko‘rsatkichlari

xaritasini tuzib chiqdik. Turistik ob'yektlarning moliyaviy xavfsizligi ko'rsatkichlari xaritasi quyidagicha tuzildi.

1. Narx barqarorligi:

Inflyasiya darajasi: turistlar uchun tovarlar va xizmatlar narxiga ta'sir qiluvchi mintaqadagi inflyasiya darajasi.

Valyuta tebranishlari: mahalliy valyutaning asosiy jahon valyutalariga nisbatan barqarorligi. Valyuta ayirboshlash paytida yo'qotish xavfi.

Mavsumiy narxlarning o'zgarishi: turar joy, ovqatlanish va o'yin-kulgi narxlari mavsumga qarab qanday o'zgaradi.

2. Firibgarlik va moliyaviy jinoyatlar:

Kredit karta firibgarligi: turistik hududlarda bank kartalari firibgarligining tarqalishi holati.

Onlayn firibgarlik: onlayn bron qilish yoki Internet orqali xizmatlarni to'lashda moliyaviy yo'qotish xavfi.

Ko'cha firibgarliklari: sayyohlarga qaratilgan firibgarlik sxemalarining tarqalishi (soxta taksilar, valyuta ayirboshlash firibgarligi va boshqalar.)

3. Sayyohlik kompaniyalarining moliyaviy ishonchliligi:

Turoperatorlarning bankrotligi: sayohatlar uchun to'langan mablag'larning yo'qolishiga olib kelishi mumkin bo'lgan sayyohlik kompaniyalarining bankrotligi xavfi.

Sug'urta: sayyohlar uchun sug'urtaning mavjudligi va ishonchliligi (tibbiy sug'urta, sayohatni bekor qilish sug'urtasi, yuklarni sug'urtalash).

Narxlarning shaffofligi: sayohat xizmatlari uchun narxlar qanchalik shaffof shakllanadi.

4. Moliyaviy xizmatlardan foydalanish:

Bankomatlar va bank filiallarining mavjudligi: sayyohlar uchun bankomatlar va bank xizmatlarining mavjudligi.

Kredit kartalaridan foydalanish imkoniyati: kredit kartalari mehmonxonalar, restoranlar va do'konlarda qabul qilinadimi.

Naqd pul olish to'lovlari: bankomatlarda naqd pul olish to'lovlari miqdori.

5. Mintaqadagi iqtisodiy vaziyat:

Ishsizlik darajasi: mintaqadagi iqtisodiy rivojlanishning umumiy darajasi, bu bilvosita sayyohlarning xavfsizligiga ta'sir qilishi mumkin.

Siyosiy barqarorlik: xavfsizlik va moliyaviy barqarorlikka ta'sir qilishi mumkin bo'lgan mintaqadagi siyosiy vaziyat.

Xaritada vizualizatsiyani tashkil qilish uchun:

Rang kodlash: turli xil xavf darajalari uchun turli xil ranglar tanlanadi.

O'quv piktogrammalari: turli xil moliyaviy risklarni ko'rsatish uchun piktogrammalardan foydalanish.

Interaktivlik: ob'yektni bosish va moliyaviy xatarlar to'g'risida batafsil ma'lumot olish qobiliyati.

Qatlamlar: foydalanuvchilarga qulaylik yaratish uchun ma'lumotlarni qatlamlarga ajratish.

Ushbu kartini eng muhim jixatlari shundan iboratki, xaritada ma'lumotlarni muntazam yangilab turish va ma'lumot manbalarini ko'rsatish talab etiladi. Xarita alohida sayyohlar uchun ham, sayyohlik kompaniyalari uchun ham sayohatlarni rejalashtirish va xavflarni baholashda foydali bo'lishi mumkin.

Xavf darajasi	Rang	HEX kodi	Tavsifi
Juda yuqori xavf	Qizil	#FF0000	Qalloblik xavfi juda yuqori (masalan: firibgarlik, skimming, soxta kompaniyalar). Ehtiyot bo'ling!
Yuqori xavf	Norinj	#FFA500	Naqd pulda yurish tavsiya etilmaydi. Xizmatlar narxi sun'iy oshirilishi mumkin.
O'rta xavf	Sariq	#FFFF00	Ehtiyot choralari kerak. Turistlardan yuqori to'lov talab qilinishi mumkin.

Xavf darajasi	Rang	HEX kodi	Tavsifi
Past xavf	Yorug‘ sabz	#90EE90	Moliyaviy xavf kam, lekin baribir umumiy ehtiyot choralariga rioya qilish kerak.
Xavf yo‘q	Sabz	#008000	Hamyonbop, xavfsiz va shaffof tijorat muhiti. Mulohazali ravishda harakat qilish kifoya.

1-rasm. Xavf darajalari uchun rang tavsiyalar:

Turistlar uchun moliyaviy xavf xaritasi — ishlash prinsipi quyidagicha shakllantiriladi: Masalan:

-  **Juda yuqori xavf** – Qalloblik, soxta xizmatlar
-  **Yuqori xavf** – Og‘zaki narx o‘zgarishi mumkin
-  **O‘rta xavf** – Ehtiyot bo‘lish lozim
-  **Past xavf** – Deyarli xavf yo‘q
-  **Xavfsiz** – Shaffof savdo, turistga yo‘naltirilgan

Hududlar bo‘yicha ranglash: Shahar, tuman, yoki hatto mahalla darajasida har bir hududni xavf darajasiga qarab belgilash lozim. Masalan: Qizil: So‘nggi vaqtlarda ko‘plab firibgarlik holatlari kuzatilgan joylar. Sabz: Turistlar ko‘p tashrif buyuradigan, xavfsiz savdo nuqtalari bor joylar. Xarita burchagida xavf darajalari va ranglar tushuntirilgan blok joylashtiriladi.

Natijalarga ko‘ra, turizm xavfsizligi sohasida kelajakda yanada chuqurroq tadqiqotlar olib borish zarur. Turizm sanoati rivojlanmoqda va turistlarning moliyaviy xavfsizligini ta‘minlashning zamonaviy usullari ham doim yangilanib turishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. G.Mirhamidova, N.Urunov Formation of financial literacy of students of future mathematics teachers by solving keys, World Economics & Finance Bulletin (WEFB). -6, 2024-yil. <https://www.scholarexpress.net>

2. G.Mirhamidova, N.Urunov “Raqamli jamiyatda bolalar uchun moliyaviy savodxonlikni shakllantirishning xorij tajribasi”, Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow, Russia. -12, 2024-yil. <https://econferenceseries.com/index.php/scms/issue/>
3. A.X.Asqarov, G.Mirhamidova, “Педагогические нормы оценки финансовой грамотности студентов экономической направленности” NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI IY AXBOROTNOMASI, [2024-7]. -9, 2024-yil. journal.namdu.uz
4. A.X.Asqarov, G.Mirhamidova, N.Urunov, “Mamlakatni iqtisodiy o'sishida maktab o'quvchilarining moliyaviy savodxonligini oshirishning tutgan o'rni” ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. -10, 2024-yil. <https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/15794>
5. A.X.Asqarov, G.Mirhamidova, N.Urunov, “Iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida moliyaviy savodxonlikni oshirish usullari” ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. -11, 2024-yil. <https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/15791>
6. A.X.Asqarov, G.Mirhamidova “Iqtisodiy yo'nalishdagi talabalar o'rtasida moliyaviy savodxonlikni baholashni pedagogik me'zonlari” Journal of New Century Innovations . -16, 2024-yil. <https://www.newjournal.org/index.php/new/article/view/15796>
7. A.X.Asqarov, “The need for innovative pedagogical technologies to improve the financial literacy of student youth”, NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI. -6, 2024-yil. e-mail: science@namdu.uz
8. A.X.Asqarov, “Олий таълим муассасаларида молиявий саводхонликни оширишни педагогик технологиялари”, International Journal of Science and Technology. -10, 2024-yil. muydinovmuhammadzair@gmail.com
9. A.X.Asqarov, “The Process of Organizing the Increase in Financial Literacy in Higher Educational Institutions”, European Journal of Economics, Finance and Business Development . -10, 2024-yil. 11

10. S. V. Brovchak, M. A. Selivanova, E. N. Sochneva, O. V. Firsanova, A. A. Tsyganov, V. G. Shubayeva, “Issues of increase in financial literacy of students of higher educational institutions of financial and economic orientation” Перспективы Науки и Образования. 2019. 5 (41)
11. Е.П. Рошко, Обзор зарубежных и отечественных программ по повышению финансовой грамотности школьников
<https://prodod.moscow/archives/24895>
12. <https://kun.uz/news/2018/11/26/muvaffakiyatga-erisgan-sahslarning-6-siri>
13. Robert T.Kiyosaki va Sheron Lexter, “Boy ota Kambag‘al ota” 1997 yil
14. UNWTO – World Tourism Barometer. United Nations World Tourism Organization, 2023. www.unwto.org
15. McAfee. “Global Risks Report: Cyber Threats and Digital Security in 2023.” McAfee Security Insights, 2023. www.mcafee.com
16. Statista. “Share of Tourists Experiencing Online Fraud Worldwide 2022–2023.” www.statista.com
17. Forbes. “Digital Payment Systems: Convenience or Risk?” Forbes Finance, 2023. www.forbes.com
18. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi rasmiy veb-sayti. www.tourism.gov.uz
19. Google Pay & Apple Pay Fraud Report, 2022–2023. Internal survey results cited in tech security platforms.
20. O‘zbekiston ijtimoiy tarmoqlaridagi ochiq postlar asosida o‘rganilgan turistlar shikoyatlari, 2023–2024 yillar.